

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI O'QITISH METODIKASI VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Kushbakova Gulshoda Nurillayevna

Jizzax viloyati

Do'stlik tumani

14-son DMTT tarbiyachisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni o'qitishning zamonaviy metodikasi va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos pedagogik yondashuvlar, 5E modeli, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion vositalar orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida metodik yondashuvlarning afzalliklari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, metodika, ta'lim texnologiyalari, interaktiv usullar, 5E modeli, bolalar rivoji, innovatsion yondashuv

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha yondashuvlar tubdan o'zgarib bormoqda. Davlat tomonidan maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa ta'lim sifati, mazmuni va metodik yondashuvlarga yangicha qarashni talab etadi. Ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi pedagogik faoliyatda innovatsion usullarni qo'llash zarurligini yuzaga keltirmoqda.

Bola dunyoga kelgan ilk kunidan boshlab, u maktab ta'limiga qadam qo'yguniga qadar bo'lgan davrda uning har tomonlama rivojlanishini — ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan yetuk, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy tadqiqot sohasidir. Bu pedagogika sohasi bolaning ilk yosh davrida tarbiya va ta'lim olish jarayonlarini chuqur o'rganadi va ularni ilmiy asosda tashkil etishning samarali yo'llarini ishlab chiqadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi nafaqat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini, balki oilaning ham tarbiyadagi beqiyos o'rnini e'tiborga olgan holda, ushbu ikki muhim tarbiya muhitining o'zaro hamkorligini, yagona tizim sifatida bolaga ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Shu bilan birga, bu soha maktabgacha ta'lim muassasalari bilan

maktab o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni yo'lga qo'yish, bolaning maktab hayotiga moslashuvi va uni boshlang'ich ta'limga puxta tayyorlash bo'yicha ham muhim masalalarni qamrab oladi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi doirasida bolaning yoshiga mos tarzda tarbiya va ta'lim berishning asosiy vazifalari, tamoyillari, mazmuni, metodlari, shakllari aniqlanadi. Shu asosda tarbiyaviy faoliyatni qanday tashkil etish, qanday pedagogik yondashuvlardan foydalanish kerakligi, bolalarning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qilishi haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlarini erta aniqlab, ularni to'g'ri yo'naltirish, jamiyatga foydali, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol shaxslarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim metodikasi – bu bolalarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va olib borish usullari majmuasidir. Asosiy metodik yondashuvlar quyidagilardan iborat:

O'yin metodikasi – ta'lim jarayoni o'yinlar orqali tashkil qilinadi. Bu usul bolalarning qiziqishini uyg'otadi va ularni faol fikrlashga undaydi.

Kuzatuv va tajriba metodlari – tabiat va atrof-muhit bilan bog'liq bilimlar bolalarga kuzatish va oddiy tajribalar orqali o'rgatiladi.

Suhbat va hikoya metodlari – og'zaki nutqni rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun bir nechta muhim yondashuvlar mavjud.

Bular quyidagilardan iborat:

1. Integrallashgan yondashuv – bu uslubda ta'limning turli shakllari uyg'unlashtirilib, bolalarning barcha asosiy ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Masalan, o'yinlar, musiqa, rasm chizish va qo'shiqlardan birgalikda foydalanish orqali bolalarda chuqur o'rganishga qiziqish uyg'otiladi.

2. Faol ta'lim jarayoni – bolalarga bilim olishda faollik ko'rsatish imkoniyati beriladi. Interaktiv usullar, turli o'yinlar va jismoniy harakatlar orqali ular o'z fikrini ifoda etadi va amaliy tajriba orttiradi.

3. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – har bir bolaning individual rivojlanish sur‘ati va ehtiyojlari inobatga olinadi. Bu esa o‘z navbatida, ta‘lim mazmunini har bir bola uchun moslashtirishni talab qiladi. Bolaning qiziqishlariga mos faoliyat turlari tanlanadi.

4. Kuchli motivatsiya berish – bolalarda yangi bilimlarga ishtiyoqni uyg‘otish uchun ijobiy munosabat va rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Rag‘batlantirish vositalari orqali ularni o‘rganishga undash mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘qitish jarayoni turli metodlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. O‘yinlar, amaliy mashg‘ulotlar, nutqni rivojlantirish, san‘at faoliyati hamda tashqi muhit bilan ishlash orqali nafaqat bilim beriladi, balki bolalarning hissiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishi ham qo‘llab-quvvatlanadi. Shu bois, bu yoshdagi bolalarni o‘qitishda ijodiylik, qiziqarli muhit yaratish va interaktivlik juda muhim hisoblanadi.

Ta‘lim texnologiyalari pedagogik jarayonni samarali va natijador tashkil etish vositalaridir. Maktabgacha ta‘limda quyidagi texnologiyalardan foydalanish afzallik beradi:

5E modeli (Kirish – Tashkillashtirish – Tushuntirish – Mustahkamlash – Baholash) bolalarning bilim olish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga imkon beradi.

Dunyo tajribasida, xususan, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda bolalarning erkin fikrlashi, muomala madaniyati va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga urg‘u beriladi. Bu mamlakatlarda ta‘limda o‘yinli faoliyat, STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Arts, Math) keng qo‘llaniladi. Bu model o‘yin asosida bolalarning muhandislik fikrlashini, texnologiyani tushunish va yaratish qobiliyatini, san‘at orqali tasavvur va estetik qarashlarini, hamda matematik tahlil yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv orqali bolalar tabiat va atrof-muhitni chuqurroq anglaydi, yangi bilimlarga qiziqish uyg‘onadi, muhandislik fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish, jamoaviy hamkorlik, yetakchilik va o‘z imkoniyatlarini namoyon etish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Bu esa, ularni intellektual va shaxsiy rivojlanish yo‘lida yangi bosqichga olib chiqadi.

Zamonaviy pedagog – bu faqatgina bilim beruvchi emas, balki bola rivojini yo‘naltiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi, motivatsiya beruvchi shaxsdir. U o‘quvchini faol sub’ekt sifatida tan oladi va ta’lim jarayonining markaziga qo‘yadi.¹

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda innovatsion metodlar va zamonaviy ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Bolaning yosh xususiyatlariga mos yondashuvlar, o‘yin asosida o‘qitish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ta’lim jarayoni ko‘ngilli va samarali kechadi. Shuning uchun pedagoglar doimiy ravishda yangiliklarga ochiq bo‘lishi, o‘z ustida ishlashi va ilg‘or tajribalardan foydalana olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. Karimova R. “Maktabgacha ta’lim metodikasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
3. Akramova M.X. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

¹ Akramova M.X. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.